

NOMODDIY MADANIY MEROS MUHOFAZASI XALQ MADANIYATINING POYDEVORI

Akbarov Alisher Yusufjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirining yordamchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10654275>

Annotatsiya

Hozirgi kunda nomoddiy madaniy merosni xalq madaniyati rivoji uchun asrab-avaylash eng dolzarb muammolardan biridir. Ushbu maqola nomoddiy madaniy merosning o'rni, uni muhofazalash va ta'lim tizimiga tatbiq etish xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: nomoddiy madaniy meros, xalq og'zaki ijodi, an'ana, milliy urf-odatlar.

Nomoddiy madaniy meros tushunchasi urf-odatlarni, o'ziga xoslikni ifodalash shakllari, bilimlar va ko'nikmalarni, shuningdek, ular bilan bog'liq jihozlar, predmetlar, artefaktlar va madaniy makonlarni aks ettiradi, ular esa o'z navbatida hamjamiyatlar, guruhlar tomonidan, alohida holatlarda esa muayyan shaxs madaniy merosining bir qismi sifatida tan olinganligini anglatadi.

Avloddan avlodga o'tib kelayotgan bunday nomoddiy madaniy meros doimo muayyan hamjamiyatlar va guruhlar tomonidan ularning atrof-muhitga, tabiatga va o'z tarixiga bog'liq holda yaratiladi va bu ularda o'ziga xoslikni, vorislik tuyg'usini shakllantiradi hamda shu bilan insoniyat ijodini va madaniy turli-tumanlikning hurmat qilinishiga ko'maklashadi.

Ma'lumki, har bir xalqning madaniyati, nomoddiy merosi o'sha xalqning o'zligini ifodalaydi. Ana shu o'ziga xos nomoddiy meros namunalari bilan har biri alohida ajralib turadi va boshqalar ham ana o'sha o'ziga xoslik sabab ham ularni taniydi, biladi. Xususan, biz o'zbek xalqini ham chet xalqlar o'ziga xos madaniyatimiz, asrlar osha davom etib kelayotgan va o'tmishimizdan so'zlaydigan dostonlarimiz-u, maqomlarimizdan bilishadi. Milliy kiyim va milliy taomlarimizdan tanishadi va qiziqishadi. Bu kabi madaniy meros namunalari albatta hurmat qilinishi kerak. Shuningdek nomoddiy madaniy merosning muhofaza qilinishi, saqlanishi va kelgusi avlodlarga yetkazilishi barqaror taraqqiyotga o'z hissasini qo'shishi ham kundek ravshan. Chunki, biror xalqning nomoddiy madaniy merosida barqaror taraqqiyotga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omil yo'q va bu meros to'laligicha taraqqiyotga xizmat qiladi.

Nomoddiy madaniy meros namunalari orasida o'zbek xalq dostonlari alohida ajralib turadi. Aynan dostonlarimiz o'zbek folklorining keng tarqalgan va yirik janrlaridan biridir. Xo'sh doston nima? Doston so'zi "qissa", "hikoya", "sarguzasht", "ta'rif" va "maqtov" ma'nolarini anglatadi. Adabiy termin sifatida bu atama xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotdag'i yirik hajmli epic asarlarni anglatadi. Dostonlarda tasvirlangan voqealar xalqimizning axloqiy, falsafiy, diniy qarashlarini, hayoti, urf-odatlarini qomusiy bir tarzda ifodalaydi. Aynan dostonlar orqali yana bir nomoddiy merosimiz namunasi bo'lgan baxshichilik san'ati bir so'z bilan aytganda vujudga keldi va kun sayin rivoj topib bormoqda. Dostonlarning bugungi kungacha yetib kelishi va saqlanib kelinayotgani baxshilarimiz bilan chambarchas bog'liq. Sababi, dostonlarimiz ular tomonidan kuylangan va ustoz-shogirt an'anasi orqali yetib kelgan.

Shuningdek, nomoddiy madaniy meros namunlalarimiz tilde, ijro san'atida, xalqning urfodatlari, marosimlari, bayramlarida, o'ziga xos musiqa va raqs san'atida, tabiat va koinotga oid bilimlar yig'indisida, an'anaviy hunarmandchilik bilan bog'liq bilim va ko'nikmaklarda namoyon bo'ladi.

Prezidentning 25.12.2023 yildagi "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-405-son qarori qabul qilindi.

Hujjat bilan quyidagilar nomoddiy madaniy merosni asrab-avaylash, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi:

- nomoddiy madaniy merosni har tomonlama muhofaza qilish, keng jamoatchilikni jalb etgan holda uning namunalarini aniqlash, ro'yxatlarga kiritish, raqamlashtirish, targ'ib qilish va saqlash;
- maqom va baxshichilik san'atini muhofaza qilish, ilmiy o'rganish, targ'ib qilishni yanada rivojlantirish;
- nomoddiy madaniy merosning noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan namunalarining, shuningdek, merosni muhofaza qilish bo'yicha ilg'or tajribalarning Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiya doirasida xalqaro ro'yxatlarga kiritilishiga erishish;
- respublika va xalqaro miqyosda etnofolklor ekspeditsiyalari tashkil qilish, ilmiy-tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlash;
- nomoddiy madaniy meros ta'larning barcha bosqichlarida o'rganilishini tashkil etish hamda soha uchun malakali kadrlar tayyorlash.

Alovida ahamiyatga ega bo'lgan nomoddiy madaniy meros namunalari bo'yicha nomoddiy madaniy meros namunalarini yozib olish va keng targ'ib qilish, jumladan internet va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilish uchun har yili 50 ta audiovizual asar yaratishga davlat buyurtmasi beriladi. Davlat buyurtmasi Madaniyat vazirligi tomonidan tuziladigan to'g'ridan-to'g'ri shartnomasi asosida amalga oshiriladi.

Qaror bilan quyidagilar tasdiqlandi:

Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti asosiy vazifalari, shu jumladan etnofolklor laboratoriysi tashkil etish;

YUNESKOning xalqaro ro'yxatlariga taqdim etish uchun nomzodnomma hujjatlari tayyorlanadigan nomoddiy madaniy meros namunalari ro'yxati;

2024–2026 yillarda nomoddiy madaniy merosni ilmiy o'rganish bo'yicha mahalliy va xorijiy etnofolklor ekspeditsiyalarini tashkil etish rejasи;

2024–2026 yillarda nomoddiy madaniy merosni ilmiy o'rganish va targ'ib qilish bo'yicha fundamental va maqsadli grantlar bo'yicha davlat buyurtmalari rejasи va boshqalar.

Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga qaratilgan prezident qarori qabul qilindi.

Unga ko'ra, 2024-yilning 1-apreldan noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan nomoddiy madaniy meros namunalarini saqlovchi 20t a shaxs aniqlanib, ularga ko'maklashiladi. Shu bilan birga ularning faoliyatini baholash ko'rsatkichlari belgilab beriladi.

Bu ko'rsatkichlarni bajargan nomoddiy madaniy meros namunalarini saqlovchi shaxslar har oyda 5 mln so'm miqdorida rag'batlantirib boriladi.

Alovida ahamiyatga ega nomoddiy madaniy meros namunalarini yozib olish va keng tarqatish uchun har yili 50 ta audiovizual asar yaratishga davlat buyurtmasi beriladi.

Qarorga ko'ra, nomoddiy madaniy meros namunalarini "tayyorlash-o'rgatish-tiklash-ommalashtirish" yaxlit uzlusiz tizim asosida rivojlantiriladi. Namunalarni kompleks rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy va ijodiy maktablar faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot institutida etnofolklor laboratoriysi tashkil etiladi. Institutga 2024-yildan har yili to'lov-kontrakt shartnomasi asosida tayanch doktorantura uchun kamida 3tadan, stajor-tadqiqotchilik uchun esa kamida 2 tadan kvota ajratiladi.

Shuningdek, 2024-yildan har yili madaniyatshunoslik, nomoddiy madaniy meros sohalari, xususan, maqom va baxshichilik san'ati bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borayotgan xodimlar xorijiy olyi ta'lim va ilmiy muassasalariga PhD darajasini himoya qilish uchun yuboriladi.

Mart oyida "Milliy qadriyatlar oyligi" tadbirlari va xalq sayillari o'tkazib boriladi. Kelasi yilning 1-oktabrigacha "Qadriyat" elektron platformasi va uning mobil ilovasi yaratiladi.

Platformaga nomoddiy madaniy merosni, jumladan maqom, baxshichilik namunalarini o'zida saqlovchi va yetkazuvchilar haqidagi ma'lumotlar hamda ularning ro'yxati joylashtiriladi.

Joriy yilning martida Madaniy meros agentligi tomonidan aholidan madaniy boyliklarni sotib olishga mo'ljallangan portal ishga tushirilgandi.

Nomoddiy madaniy merosni ta'lim tizimiga tatbiq etishda ilmiy-tadqiqot loyiha ishlarini uzlucksiz olib borish bitiruv malakaviy, magistrlik, doktorlik dissertatsiyalari hamda o'qituvchilik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ilmiy-uslubiy va ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda yaqindan yordam beradi. Chindan ham yuqorida keltirib o'tilganidek, nomoddiy madaniy merosimiz ta'lim tizimiga kutilganidek tatbiq etilsa, uning yanda rivojlanishi uchun ilmiy-nazariy va amaliy ishlar amalga oshirilsa, ushbu o'lmas qadimiy durdona namunalari yo'qolib ketmaydi. Kun sayin rivoj topib, sayqallanib boraveradi.

References:

1. Nomoddiy madaniy merosning tabiat va koinotga oid bilim va ko'nikmalarini ijtimoiygumanitar fanlar negiziga singdirish\\Uslubiy qo'llanma\\ T.: "NAVRO'Z" nashriyoti 2015. – 64 b.
2. Nomoddiy madaniy meros va folklore ijro san'ati an'analari\\ navro'z nashriyoti.
3. Tashpulatova, D., & Siddiqova, I. (2021, April). A CRITIQUE OF THE VIEW OF ANONYMY AS A RELATION BETWEEN WORD FORMS. In Конференции.
4. Тошпулатова, Д. Х. (2019). ПОНЯТИЕ И ВИДЫ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КОНЦЕПЦИЙ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ. АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КОНЦЕПЦИЙ. Вопросы педагогики, (7-2), 118-121.
5. Tashpulatova, D. K. K., & Jiyenbayeva, B. (2023). THE IMPACT OF LEARNING A LANGUAGE ON THE BRAIN FUNCTION. Academic research in educational sciences, 4(TMA Conference), 310-314.
6. ТАШПУЛАТОВА, Д. PRAGMATIC APHORISMS IN UZBEK AND ENGLISH FEATURE AND THE PRINCIPLES OF THEIR TRANSMISSION IN THE CORPUS. СООТНОШЕНИЕ ПАРАЛИНГВИСТИКИ И РЕЧЕВОГО ЭТИКЕТА В РАЗНЫХ ЛИНГВОКУЛЬТУРАХ.
7. ZZ Azamovna, MUSIC PEDAGOGY SKILLS OF A MUSIC CULTURE TEACHER, European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 8 (4)
8. Z Zakirova, SCIENTIFIC BASIS FOR INTRODUCING PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MUSIC EDUCATION. Theoretical & Applied Science, 69-70
9. ZA Zakirova, ON THE ART OF MUSIC IN TEACHING HISTORY LESSONS TO GENERAL SECONDARY SCHOOL STUDENTS METHODS AND METHODS OF USE OF RESOURCES. Modern Scientific Research International Scientific Journal 1 (9), 22-27.
10. PDZZ Azamovna The Role of Music Art in the Cultural and Spiritual Life of Uzbekistan. Texas Journal of Philology, Culture and History 23, 16-19.